



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 293-299 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TRANSPORT XIZMATLARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRITISH



Ibadullayev Nurali Eshniyazovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
Haydarov Jahongir Aktamovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Real iqtisodiyot" kafedrasida assistenti

Annotatsiya ushbu maqolada transport xizmat ko'rsatish sohasida infratuzilma samaradorligini oshirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. Transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: transport xizmatlari, infratuzilma, transport koridorlari, raqamlashtirish, tashkil etish, eksport, import, tranzit, tartib-qoida, soddalashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ РАЗВИТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ

Ибадуллаев Нурали Эшниязович –
кандидат экономических наук, доцент. Самаркандский
институт экономики и сервиса.

Хайдаров Жахонгир Актамович –
Самаркандский институт экономики и сервиса,
ассистент кафедры «Реальная экономика».

Аннотация: В данной статье подробно исследованы конкретные аспекты и особенности повышения эффективности инфраструктуры в сфере транспортных услуг. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию концептуальных направлений развития инфраструктуры транспортных услуг.

Ключевые слова: транспортные услуги, инфраструктура, транспортные коридоры, цифровизация, организация, экспорт, импорт, транзит, процедура, упрощение.

IMPROVING CONCEPTUAL DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF TRANSPORT SERVICE INFRASTRUCTURE

Ibadullaev Nurali Eshniyazovich –

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Samarkand Institute of Economics and Service.

Khaidarov Jahongir Aktamovich – Samarkand
Institute of Economics and Service, assistant at the
Department of “Real Economy”.

Abstract: This article examines in detail specific aspects and features of increasing the efficiency of infrastructure in the field of transport services. Proposals and recommendations for improving the conceptual directions for the development of transport services infrastructure are given.

Keywords: transport services, infrastructure, transport corridors, digitalization, organization, export, import, transit, procedure, simplification.

Kirish

Jahonda globallasuv jarayoni chuqurlashib va iqtisodiyotni raqamlashtirish kuchayib borayotgan sharoitda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini jadal rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jahon YaIM hajmida mazkur sohaning salmog'i o'rtacha 65 foizni tashkil etgan holda, mazkur ko'rsatkich AQShda 80 foizni, Yevropa Ittifoqi davlatlarida 70-75 foizni tashkil etadi". AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotidagi tadrijiylikka asosan, inson salohiyati taraqqiyotiga istiqbol maqsadlaridan biri sifatida yondoshilgan ifratuzilmani tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamda foydalanilayotganligini ko'rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Infratuzilma konsepsiyasining rivojlanishiga nemis tadqiqotchisi R.Yoximsen salmoqli hissa qoshgan bolib, u infratuzilmani butun va uzluksiz iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bolgan turli shart-sharoitlar (moddiy, institusional va individual) majmui deb hisoblagan. faoliyat, shu jumladan resurslar xarajatlariga qarab olinganlarni tenglashtirish. U birinchi bolib infratuzilmani yaratilgan qollab-quvvatlash shartlarining xususiyatlariga kora tasniflashni taklif qildi.

D.Kots infratuzilmani boshqaruvning alohida kategoriyasi - infratuzilmani boshqarish - mamuriy va iqtisodiy xizmatlarning faoliyati doirasida tashkilotlarning xojalik funksiyalaridan biri shaklida korib chiqadi.

Ye.B. Alayev , infratuzilma - ishlab chiqarish bilan bevosita bogliq bolmagan, lekin ishlab chiqarish (ishlab chiqarish infratuzilmasi - transport, suv taminoti va elektr energiyasi, aloqa va boshqalar) va ijtimoiy (ijtimoiy infratuzilma - talim, sogliqni saqlash) rivojlanish omillari bolgan yagona obyektlar majmuasidir, madaniy obyektlar va boshqalar) hududning jarayonlari

A.I. Kuznesova , infratuzilma sektori geoiqtisodiy yondashuv asosida korib chiqiladi, bu oz nomini geoiqtisodiy paradigmadan oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda aloqa xizmatlarini samarali rivojlantirish ko'rsatkichlarini iqtisodiy-matematik usullar orqali tahlil qilish natijasida xulosa va

takliflar shakllantirilgan. Bundan tashqari ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda analiz va sintez usuldan ham samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida transport xizmatlari va uning infratuzilmasi samaradorligini oshirish, transport koridorlarini raqamlashtirish va tashkil etish, eksport, import va tranzit tartib-qoidalarini soddalashtirish, transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonunchilikni muvofiqlashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategik dasturlarni amalga oshirish muhim yo'nalishlardan hisoblanadi.

Transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish mamlakat yoki hududning rivojlanish darajasini belgilaydigan, jamiyat va uning rivojlanishining asosiy muammolarini aks ettiruvchi ustuvor vazifadir. Shu ma'noda transport xizmatlari infratuzilmasini boshqarish, modernizatsiya qilish va rivojlantirish uzluksiz siklik jarayon bo'lib, uni takomillashtirish konseptual yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirishni taqozo etadi. Shunday ekan, transport xizmatlari infratuzilmasini shakllantirish doimiy biznes aloqalarini qo'llab-quvvatlaydi, ammo kelajakda iqtisodiyotning harakatchanligini ta'minlash uchun uning strategik yo'nalishlarini belgilab olish muxim hisoblanadi. Iqtisodiy tarmoq va sohalarda transport xizmatlari infratuzilmasining yetarli emasligi, o'zaro aloqalarning yo'qligi, ularni olib tashlash uchun mablag' yetishmasligi kabi muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolarni bartaraf etish infratuzilma muammolari bilan bog'liqdir. Shunday muammolardan biri sifatida transport xizmatlari infratuzilmasi tamonidan hosil qilinadigan ekologik transport issiq gazlarning muhim emitenti, shuningdek, turli xil ekologik muammolarning manbai, xususan, havo ifloslanishining asosiy sababidir. Ma'lumki, transport sektori dunyodagi energiya bilan bog'liq CO² chiqindilarining 21% ga javobgardir va bu ulush 2030 yilga kelib 23% gacha oshishi kutilmoqda [1]. Shu sababli, Respublikada ekologik muammolarni hal etish yo'nalishlari sifatida shaharlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, toza havo limitini saqlab qolish maqsadida shaharlardagi transport xizmatlari infratuzilmasi va tizimlarini yaxshilashdir. Dunyo bo'ylab ko'plab shaharlar temir yo'lga asoslangan jamoat transporti loyihalaridan tortib avtobus liniyalari va velosiped yo'llarini ta'minlash, aqlli va toza transport vositalaridan foydalanishgacha bo'lgan aniq konseptual siyosat va strategik loyihalar belgilab olingan.

Transport vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi transport tizimini 2030-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi va bu esa ushbu yo'nalishda konseptual yo'nalishlarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi. Transport xizmatlari infratuzilmasi samaradorligini oshirishga qaratilgan amalga oshirilayotgan islohotlar davlat iqtisodiyoti, aholi va biznesning ehtiyojlarini to'liq qondirishdan iborat. Respublikada transport xizmatlari infratuzilmasini konseptual rivojlantirish tizimli faoliyati shakllantirilgan bo'lib, soha faoliyatini rivojlantirish, ekologik salbiy oqibatlarini oldini olish va xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi va yettita asosiy ustuvor yo'nalishini qamrab oladi:

1-dan, yagona transport siyosatini shakllantiruvchi, transport xizmatlari infratuzilmasining yagona tizimini shakllantirish;

2-dan, mutanosib tarif siyosatini olib borish, monopoliya darajasini yanada pasaytirish va transport xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish;

3-dan, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun transport xizmatlarining sifati, qulayligi va samaradorligini oshirish va rivojlantirish;

4-dan, O'zbekiston Respublikasi transport tizimini jahon transport makoniga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish va infratuzilma tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish;

5-dan, transport tizimini raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish darajasini oshirish, intellektual transport tizimini yaratish;

6-dan, transport xavfsizligi va tashish xavfsizligini ta'minlash tizimi infratuzilmasini takomillashtirish;

7-dan, transportning ekologik tozaligini ta'minlash, "yashil" transport xizmatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun transport va yo'l infratuzilmasi sohasidagi milliy qonunchilikni ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda takomillashtirish, jumladan: "Transport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish, turli transport turlarining optimal va muvozanatli o'zaro ta'siriga yo'naltirilgan yagona milliy transport tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni Taraqqiyot strategiyasi, o'ttiz oltinchi maqsadida ta'kidlaganidek **"Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish"** kabi maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish. Transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish strategiyalari keltirilgan [2].

Bundan tashqari Respublika transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 2035-yilgacha Transport strategiyasida "O'rta koridor" O'zbekistonning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Strategiyaga ko'ra, Xitoy va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi yuk tashishning Markaziy Osiyo bo'limida O'zbekistonning asosiy raqobatchisi Qozog'iston hisoblanadi. Hujjatda Qozog'istonning Xitoy va Rossiya bilan umumiy chegaralari, o'z navbatida, Boltiq dengizi va Belarus orqali Yevropa Ittifoqi bilan chegaradoshligi kabi afzalliklarga ega ekanligi tushuntiriladi. Qolaversa, Qozog'iston yagona transport-iqtisodiy makon shakllanayotgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YEIOI) a'zolik bilan bog'liq imtiyozlarga ega. YeOII da transport nazorati Rossiya-Qozog'iston chegarasidan Qozog'istonning tashqi chegarasiga ko'chirildi, bu nazorat funksiyalarining takrorlanishini bartaraf qiladi va Qozog'iston avtotransport kompaniyalariga yuklarni YeOII orqali barcha xalqaro tashishlarni cheklovlarsiz amalga oshirish imkonini beradi. Nihoyat, Qozog'iston va Rossiya orqali transkontinental transport kommunikatsiyalaridan foydalanish va rivojlantirishda asosiy yuk hosil qiluvchi markaz sifatida Xitoyning o'ziga qiziqish bor. Shu bois O'zbekiston Qozog'iston bilan ham hamkorlik qilishni, ham kelajakda yuk tashish bo'yicha raqobatlashishni rejalashtirmoqda. Qozog'iston bilan

hamkorlik uchun bir qancha yo‘laklarni ko‘rib chiqadi. Birinchidan, “Qirg‘iziston – O‘zbekiston – Qozog‘iston – Rossiya (Belarus) – Yevropa Ittifoqi” avtomobil va temir yo‘l yo‘nalishlari hamda Shimoliy temir yo‘l koridori imkoniyatlaridan Yevropa, Rossiya va Qozog‘iston uchastkalarida foydalanish. Ikkinchidan, “Qirg‘iziston – O‘zbekiston – Qozog‘iston – Kaspiy dengizi – Ozarbayjon – Gruzuya – Qora dengiz mintaqasi yoki Gruzuya – Turkiya – Yevropa Ittifoqi” avtomobil va temir yo‘l yo‘llari. Bu yo‘nalish Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori (TRASEKA) yo‘laklari bilan to‘g‘ri keladi. Avtomobil transporti infratuzilmasi xizmatlari sohasida faoliyat yurituvchi sub‘ektlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar segmentlari quyidagilardan iborat (1-jadval):

1-jadval

Respublika avtomobil transporti infratuzilma xizmatlari bozorida segmentlari

Aftomobil transportining asosiy segmentlari	Bajariladigan maqsadlar
Yuk tashish, yo‘lovchi xizmatlarini amalga oshirish	har ikkala birlashtirilgan yuk birliklarining yuk tashish, va avtomobil kuzovlarini yukning fizik-kimyoviy xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladigan va maxsus transport vositalaridan, masalan, muzlatgich, tanker va boshqalardan foydalangan holda yuk tashish.
Intermodal va multimodal tizimlar xizmatlarini amalga oshirish	yuk tashish, bunda avtotransport vositalari yuklarni faqat ma‘lum bir yo‘nalish bo‘yicha tashiydi, uni boshqa transport vositasida amalga oshirish mumkin emas.
Terminal xizmatlarini boshqa transport tarmoqlari integratsiya ko‘rsatishni amalga oshirish	avtomobil transporti xizmatlari ko‘pincha yetkazib berish-dispetcherlik xizmatlari, ya‘ni jo‘natuvchidan terminalga va terminaldan qabul qiluvchiga va terminal ichidagi va terminalsiz xizmatlar, asosan konteynerlardir.
Ixtisoslashgan aftomobil parkni shakllantirish (yuk tashish xizmatlari bo‘yicha)	maxsus yuk turlariga moslashtirilgan ixtisoslashtirilgan transport yuklarini tashish, masalan, suyuq, oson buziladigan (sovutilgan) yuklarni tashish.
Avtoparkdan foydalanishni takomillashtirish	ixtisoslashtirilgan yuklash-tushirish moslamalari bilan jihozlangan tizim faoliyatini (og‘ir, ortiqcha yuklarni tashish) va hokazo tashkil etish.
Kuryerlik xizmatlari	bular “eshikdan eshikgacha” tizimida amalga oshirilgan, xizmatning bajarilishini kuzatish imkoniyatini ta‘minlaydigan, etkazib berishning eng qisqa, kafolatlangan muddati va oldindan kelishilgan etkazib berish sanasi bilan tavsiflanadi.

- ichki va xalqaro tashishlarda turli xil transport zaifligidagi yuklarni tashish bo'yicha transport xizmatlari;
- intermodal va multimodal tizimlarni o'z ichiga olgan xizmatlar;
- terminal xizmatlari doirasida boshqa transport tarmoqlari uchun ko'rsatiladigan xizmatlar;
- ixtisoslashtirilgan tizim asosida talab qiladigan yuklarni tashish, masalan. suyuqliklar, past harorat va boshqalar,
 - maxsus yuklash-tushirish moslamalari bilan jihozlangan parkdan foydalanishni talab qiladigan xizmatlar;
 - katta hajmdagi yuklarni tashish xizmatlari;
 - kuryerlik xizmatlari.

Xizmatlarning vazifalarga asoslangan xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, ularning ko'lami ikki omildan kelib chiqadi. Birinchisi, xizmatlarni oluvchilarning ehtiyojlari va umidlari bo'lib, u asosan transportni tashkil etish jarayoniga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, ikkinchidan transport xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish bilan birga transport tizimini rivojlantirishni jadallashtirish, transport infratuzilmasini o'rta muddatli rejalashtirish muddatlari bilan moliyalashtirish tizimini yaratish, transport infratuzilmasini "davlat-investor-foydalanuvchi" tizimida moliyalashtirishdan iborat. Aftomobil transport xizmati infratuzilmasi iste'molchilar talabi bo'yicha asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Yuk yoki tovarlarni xavfsiz yetkazib berish.
2. Tayyor mahsulotni (mahsulotni) xavfsiz joyga ko'chirish.
3. Tovarlarini (mahsulotlarni) yetkazib berish muddatlariga rioya qilish.
4. Tashishning zichligi va massasi.
5. Transport xizmatlari infratuzilmasining mavjudligi va ularning izchilligi hamda oqilonaligi.

Transport xizmatlarini amalga oshirishda bu mezonlar o'zaro oldindan belgilanadi va raqobatbardoshlikni oshirishni nazarda tutadi, lekin tayyor mahsulot (mahsulot) qo'shilgan qiymatining narx qiymatining pasayishiga ta'sir qilmaydi, bu transport xizmatlari narxini har tomonlama kamaytirishni talab qiladi [3].

Ta'kidlash joizki Respublikada transport xizmatlari infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun biz tamondan uni taraqqiy ettiradigan konseptual strategiyalari ilmiy asoslandi bularning barchasi transport xizmatlari infratuzilmasini kompleks tahlil qilish va strategik taraqqiyotning yangi rivojlanish davrini boshlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Grazi, F., J.C.J.M. van den Bergh, and J.N van Ommeren. (2008), "An empirical analysis of urban form, transport and global warming". The Energy Journal (accepted).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 6765-sonli Farmoni. 2022-yil 7-iyul. www.lex.uz
3. Zheng, H., Rayman-Bacchus, L., Yiming, W., 2011. Self-organization of industrial clustering in a transition economy: A proposed framework and case study evidence from

China. Research Policy 40, 1280-1294. <https://doi.org/10.1016/j.respol.2011.07.008>

4. Носова, С. С. Экономическая теория : учебник для вузов / С. С. Носова. – М.: ВЛАДОС, 2000. – 520 с.

5. Стаханов, В. Н. Экономика инфраструктуры общественного производства: учебное пособие / В. Н. Стаханов. – Ростов н/Д. : РИСХМ, 1989. –130 с.

6. Лебедева О.А. Транспортная инфраструктура как основополагающий фактор эффективного функционирования экономики страны / О.А. Лебедева, Ю.О. Полтавская, З.Н. Гаммаева, Т.В. Кондратенко // Сборник научных трудов Ангарского государственного технического университета. - 2018. - Т. 1. № 15. - С. 125-130.

7. Серебряков Л.Г. Проблемы стратегического планирования транспортной инфраструктуры региона – инновационный подход // Научные труды Северо-Западной академии государственной службы. – СПб, 2011. – Т. 2. Вып. 1: Государственная власть и местное самоуправление в России: история и современность. – С. 206-215

8. Иванов М. В. Развитие транспортной инфраструктуры региона: факторы, направления, инструментарий оценки [Электронный ресурс]: дис. ... канд. экон. наук по спец-ти 08.00.05 / М.В. Иванов. - Нижний Новгород, 2016. - 196 с.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

